

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i



Davlat bayrog'i O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 18 noyabrdagi 407-XII-sonli «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonuni bilan tasdiqlangan.



O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i — bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi matodir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining uzunligi 250 santimetrغا, kengligi 125 santimetrغا teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrغا tengdir. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining o'rtasidagi oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrغا teng qizil hoshiyalar o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining yuqori qismidagi moviy rangli enning yuz tomoni va orqa tomonida dastaga yaqin joyida oq rangli yangi oy va uning yonida o'n ikkita oq rangdagi besh qirrali yulduz tasvirlangan.

Oq rangli yangi oy va o'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduzning tasviri moviy rangli yuqori enning o'rtasidan 70x30 santimetrغا teng to'g'ri to'rtburchakka sig'adigan qilib joylashtirilgan.

Oq rangli yangi oy vertikal holatda do'ng tomoni dastaga qaratilgan, dastadan 20 santimetr masofada joylashtirilgan bo'lib, diametri 30 santimetrli doiraga sig'adi.

O'n ikkita oq rangli besh qirrali yulduz diametri 6 santimetrli doiraga sig'adi. Doirlar orasidagi masofa 6 santimetr. Yulduzlar uzunasiga va tikkasiga quyidagi tartibda joylashadi: yuqori qatorda uchta, o'rta qatorda to'rtta va quyi qatorda beshta yulduz. Quyi qatordagi yulduzlar yangi oyning pastki uchidan 3,5 santimetr masofada joylashadi.

Oldi tomoni



Orqa tomoni



Sxematik rasmi

